
MARRAGA YETGAN MARDLARDAN MUNOSIB RAG'BAT

Rishton tumanida paxta yig'im-terimi kun sayin jadal tus olmoqda. Mahalliy hokimlik va klaster korxonasi rahbariyati tomonidan mavsumga yuqori saviyada tayyorgarlik ko'rilgani, terimchilar uchun dalada barcha maishiy shart-sharoitlarning yaratib berilgani ish unumining oshishida asosiy omil bo'layotir.

E'tiborlisi, tumanda paxta xomashyosi tayyorlash shartnomaviy rejasini bajargan fermerlar safi ortib bormoqda. M. Topvoldiev MMTP hududidagi "Zohidon istikboli" nomli fermer xo'jaligi marrani zabt etib, o'z ishchi xodimlari va terimchilar uchun bayram dasturxonini yozdi.

Marraga yetgan mard fermer xo'jaligi rahbari o'z ishchi xodimlarini munosib rag'batlantirdi. Ishchi xodimlariga kir yuvish mashinasi va velosiped sovg'a qilindi. Bundan tashqari, Viloyat va tuman Kengashi deputatlari hamda Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi tuman bo'limi tomonidan ham fermer xo'jaligi xodimlariga qimmatbaho sovg'alar berildi.

Ushbu fermer xo'jaligi rahbarining himmati barcha uchun namuna bo'lishiga ishonamiz.

2022-10-10 10:38:56